“SHARG'UNKO'MIR”
AKSIYADORLIK
JAMIYATI

“ SHARG'UNKO'MIR ”
JOINT STOCK
COMPANY

# BUYRUQ

**2024 yil “14” Noyabr** **№ 288**

**“Sharg‘unko‘mir”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi yangi qonunchilik hujjatlarining qabul qilinishi va “Sharg’unko’mir”AJning (*keyingi o‘rinlarda - jamiyat*) manzili o‘zgarganligi munosabati bilan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid ichki me’yoriy hujjatlarini tartibga solish va qayta tasdiqlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

1. Quyidagilar:

- “Sharg‘unko‘mir”AJda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini baholash hamda korrupsiyani oldini olish va chek qo‘yish bo‘yicha ustuvor yo‘nalishlar belgilashni amalga oshiruvchi Ishchi komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha siyosati 2-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJning Odob-axloq kodeksi 4-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJning Odob-axloq komissiyasi tarkibi 5-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJning Odob-axloq komissiyasi to‘g‘risidagi nizom 6-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJ xodimlarining etika va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha yo‘riqnoma 7-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo‘yicha yo‘riqnoma 8-ilovaga muvofiq;
- “Sharg‘unko‘mir”AJda kontragentlarni tekshirishga oid yo‘riqnoma 9-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJda tuzilayotgan shartnomalarni kelishish, imzolash va ijro etish siyosati 10-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJda davlat xaridlari ustidan nazoratni tashkil etish bo‘yicha uslubiy qo‘llanma 11-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJda Korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 12-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJning korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha reglamenti 13-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJning aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 14-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti 15-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJda korrupsiyaga qarshi kurash tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo‘yicha nizom 16-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJning sovg‘alar berish va olish, biznes-tadbirlarni tashkil etish va ishtirok etish, vakillik xarajatlarini amalga oshirish bo‘yicha siyosati 17-ilovaga muvofiq;

- “Sharg‘unko‘mir”AJning xayriya va homiylik faoliyatini amalga oshirish siyosati 18-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. “Sharg‘unko‘mir”AJning 2024-yil 22-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga oid chora-tadbirlar va ichki me’yoriy hujjatlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 44-son buyrug‘i o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

4. Komplaens va korrupsiyaga qarshi kurash xizmati boshlig‘i (Xalilova) va Xodimlarni boshqarish bo‘limi boshlig‘i (Abbasov) mazkur buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirishni ta’minlasin.

5. Mazkur buyruqning ijro nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**“Sharg‘unko‘mir”AJ**
**bosh direktori** **M.A.Azizkulov**